MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATI VA TASVIRIY FAOLIYAT

Каримова Наргиза Икромжон қизи
Ўқитувчи тадқиқотчи
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23217571

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati, maazmuni, o`ziga xos jihatlari haqida so`z yuritilgan.

Калит сўзлар: мактабгача ёш, ижодий фаолият, қобилият, тасвирий фаолият, расм чизиш, аппликация, мозаика, кўникма, малака, жараён.

Maktabgacha ta'limda bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish ham pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bolalarni tasviriy faoliyatga o'tgatishda rasm solish, loydan buyum yasash metodikasi bilan bir qatorda applikatsiya va mozaika ham asosiy turlari sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlari dasturiga kiritilgan. Applikatsiya va mozaika mashg'uloti bolalarni har tomonlama o'sishida katta ahamiyatga ega. Ushbu mashhulotlar bolalarning xayolotini boyitadi, kuzatuvchanlik qobiliyatini, qo'l malakasini, shuningdek, mo'ljallay olish, shaklini va rangni sezish hissini rivojlantiradi, ijodkorlik sifatlarini, irodani tarbiyalaydi, diqqat va tasavvurni o'stiradi.

Tasviriy faoliyat va uni tashkil etish maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonning yana bir muhim tarkibiy qismi, bolalar faoliyatining asosiy yo'naliaridan bir sanaladi. Tasviriy faoliyat chizish, tabiiy va sun'iy, shuningdek, qirqim materiallardan yasash, modellashtirish hamda qurish-yasash kabi harakatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur faoliyat negizida rasm chizish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, rasm chizish mashg'ulotlari bolalarning turli sohalarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi, estetik didni shakllantirivsh, ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Turli guruhlarda tasviriy faoliyat avvaldan ishlab chiqitlgan reja asosida tashkil qilinadi va unda guruhlarning xususiyatlari inobatga olinadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning deyarli barchasi turli harakatlar rasm chizish, qo'shiq aytish, raqsga tushish, jismoniy faollikni ifodalovchi harakatlarni tashkil qilish orqali o'z ijodiy qobiliyatlarini u yoki bu darajada namoyon qiladi. Bu yoshdagi bolalarning ijodkorligi ulardagi erkinlik, faollik, o'z xohish-istaklari, xatti-harakatlarini cheklamaslik bilan bog'liq. Qolaversa, atrof-borliqni bilishga bo'lgan intilish ulardagi qiziquvchanlikni rivojlantiradi. Kattalarga taqliq qilish odatlari esa san'atning turli janrlari bo'yicha kattalar yoki tengdoshlarining harakatlarini o'zlashtirish uchun imkon beradi. Qiziquvchanlik va taqlid asta-sekin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda san'atning turli sohalari bo'yicha qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Qobiliyatli bolalar bilan ishlashning an'anaviy ta'lim jarayonidan farqli tomoni – bu pedagogik faoliyatning maxsus o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlari asosida tashkil etilishi sanaladi. Maxsus dasturlar mazmunan iqtidorli bolalarni o'qitishning o'ziga xosligini ifoda etadi.

Bu kabi o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratishda ma'lum tamoyillar asosida ish yuritiladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Iqtidorli bolalar bilan ishlashga qaratilgan davlat siyosati bu borada mavjud imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishni taqozo etadi. Tarbiyachilarning to'g'ri yondashishi maktabgacha ta'lom tashkilotlarida qobiliyat bolalarni tarbiyalashda muayyan samaralarga erishishni kafolatlaydi.[1]

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar bilan ijodiy fikrlash uchun aqlni turli sohalarda ishlashga o'rgatish kerak;
- kattalar tomonidan majburlash, "uni o'yna", "buni o'yna", "xato qilding', "mana bunday bajar' qabilida ish tutish bola ijodkorligiga zid uslublardir; "o'zim bajarishim uchun menga yordam ber" qabilida ish yuritish maqsadga muvofiqdir; bola erkin "kim bilan", "nima bilan", 'qachon' tushunchalarini o'zi hal qilsin; o'zi ko'rib, eshitib, harakat qilib, mushohada, ya'ni mantiqiy fikrlay olsin;
- dasturiy ma'lumotni bosqichma-bosqich murakkablashtirish yo'nalishida amalga oshirilishi zarur: kuzatilgan hodisalar ko'lamini kengaytirish va u yoki bu hodisalar haqidagi bilimlarni ketma-ketlikda chuqurlashtirish va umumlashtirish;
- ekskursiyada ta'limiy va tarbiyaviy vazifalar birgalikda hal etilishi lozim; shuning uchun o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar hajmini rejalashtirish hamda qanday his-tuyg'u, munosabat, axloqiy sifat, estetik ehtiyojlarni faollashtirish avvaldan o'ylanishi kerak[2].

Xulosa. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ijodkorlikka o'rgatish alohida o'rin tutadi. Bolalarda ijodkorlik ko'nikma, malakalari tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda pape-mashe usulida, shuningdek, qog'oz tabiiy hamda tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash asosida shakllanadi. Tasviriy faoliyatning izchil, uzluksiz va tizimli tashkil etilishi esa bolalarda hosil bo'lgan ijodkorlik ko'nikmalarini malakalarga aylanishini ta'minlaydi. Ijodkorlik malakalari esa bolalarni doimiy ravishda ijodiy topshiriqlarni bajarishga undash asosida rivojlanib boradi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida tabiiy materiallardan foydalanish bolalarda tabiatga nisbatan muhabbatni uyg'otadi, uni asrashga bo'lgan intilishni yuzaga keltiradi. Tashlandiq materiallar bilan ishlash, ular yordamida ijodiy mahsulotlarni yaratish esa bolalarni tejamkorlikka, mehnatni qadrlashga o'rgatadi. Shu sababli mashg'ulotlarida ijodiy faoliyat faol jalb etish dolzarb vazifadir.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Nazirova G Malikovna, CONTENT AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AND EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS- INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & …, 2022
2. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ozrGWXoAAAAJ&citation_for_view=ozrGWXoAAAAJ:_FxGoFyzp5QC
3. G Nazirova. Мактабгача катта ёшдаги болаларда халқ оғзаки ижоди воситасида миллий ғурур хиссини шакллантириш–ижтимоий педагогик зарурият сифатида. Science and innovation 1 (B8), 2067-2077

[1] Radjapova Z.T. Bolalar san'ati / OTMning bakalavriyat yo'nalishi uchun darslik. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2022 yil. – 300 bet.

[2] Одарённые дети (Пер. с анг.). – М.: Прогресс, 1991. – С. 16.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

4. Одарённые дети (Пер. с анг.). – М.: Прогресс, 1991. – С. 16.
5. Radjapova Z.T. Bolalar san'ati / OTMning bakalavriyat yo'nalishi uchun darslik. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2022 yil. – 300 bet.
6. Стерн А.С. «Введение в психологию» М . : Академия Спб 2002.
7. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." International Journal of Early Childhood Special Education 15.1
8. Anvarovna, Sultonova Nurkhon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION 1.6 (2022): 169-173. (2023).
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:Se3iqnhoufwC
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.